

ERNAZAROV Odiljon,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrasi mudiri,
t.f. PhD, dotsent

O'ZBEKISTONNING XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASHI VA REABILITATSIYA MARKAZLARI

АНТИТЕРРОРИСТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И РЕАБИЛИТАЦИОННЫЕ ЦЕНТРЫ УЗБЕКИСТАНА

COUNTER-TERRORISM ACTIVITY AND REHABILITATION CENTERS OF UZBEKISTAN

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro miqyosda terrorizmga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari, xususan, BMT tomonidan 2006 yilda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi global strategiya" ning mohiyati va uning Markaziy Osiyo davlatlarida tatbiqi tahlil qilinadi. Strategiya terrorizmning ildiz sabablarini bartaraf etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy manbalarni to'sish hamda jabrlanganlarga yordam berish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda Interpol, Europol, NATO, Yevropa Ittifoqi, SHHT singari xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlikning o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan. Ayniqsa, BMTning "Markaziy Osiyo uchun Terrorizmga qarshi global strategiyasi" (UNGCTS) mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynayotgani ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: BMTning Terrorizmga qarshi global strategiyasi, Terrorizmga qarshi erta ogohlantirish tarmog'i, Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtirish markazi, SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi.

Аннотация. В статье анализируются современные механизмы борьбы с терроризмом на международном и региональном уровнях, в частности значение «Глобальной контртеррористической стратегии ООН» (2006 г.) и её реализация в государствах Центральной Азии. Стратегия охватывает устранение коренных причин радикализации, укрепление международного сотрудничества, блокирование финансовых источников и оказание помощи жертвам терроризма. Отдельное внимание уделено

роли международных структур — Интерпола, Европола, НАТО, ЕС и ШОС — в формировании единой системы противодействия терроризму.

Ключевые слова: Глобальная контртеррористическая стратегия ООН, Сеть раннего предупреждения о террористических угрозах, Региональный информационно-координационный центр для Центральной Азии, Региональная антитеррористическая структура.

Abstract. This article analyzes contemporary mechanisms for combating terrorism at international and regional levels, with a particular focus on the UN Global Counter-Terrorism Strategy (2006) and its implementation in Central Asian states. The strategy encompasses key areas such as addressing the root causes of radicalization, enhancing international cooperation, cutting financial sources of terrorism, and supporting victims of terrorist acts. The study highlights the role of international institutions such as Interpol, Europol, NATO, the European Union, and the Shanghai Cooperation Organization in forming a unified counter-terrorism system.

Key words: UN Global Counter-Terrorism Strategy, Counter-Terrorism Early Warning Network, Central Asia Regional Information and Coordination Centre, Regional Anti-Terrorist Structure.

KIRISH

Hozirgi kunda terrorizmning mudhish qiyofasi avvalgilaridan uchta muhim xususiyati bilan farqlanadi. Birinchidan, avval terrorchilik holatlari mahalliy yoki milliy ko'rinishda sodir bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu global ahamiyat kasb etdi. Hech bir mamlakat bu tahdiddan o'zini to'liq himoyalangan deb ayta olmaydi. Ikkinchidan, terrorchilik harakatlari avvalgidan vahshiy, tajovuzkor va shafqatsizligi bilan ajralib turadi. Qo'poruvchilikni qayerda, qachon va kim tomonidan amalga oshirilishini oldindan aytib bo'lmaydi. Uning oldini olish va qarshilik ko'rsatish uzoq muddat talab etadi. Uchinchidan, avval terrorizmga sabab bo'lgan omillar millatchilik, separatizm, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik tufayli vujudga kelgan, hozirgi kunda esa ko'plab yoshlar mafkuraviy manipulyasiya qurboniga aylanmoqda [5 : 92].

Transchegaraviy faoliyat, siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlarni ko'zlashi, tinch aholiga tahdid tug'dirishi, tashkiliy tuzilmaga egaligi, global oqibatlarni keltirib chiqarishi xalqaro terrorizmning asosiy belgilarini ifoda qilmoqda.

Mazkur belgilardan kelib chiqib ta'riflash mumkinki, xalqaro terrorizm – bu biror davlat chegarasidan tashqarida amalga oshiriladigan yoki bir necha davlatlarni qamrab oladigan, siyosiy, mafkuraviy yoki diniy maqsadlarga erishish uchun tinch aholiga nisbatan zo'ravonlik ishlatishga asoslangan jinoyat faoliyatidir.

ASOSIY QISM

Terrorizm global tahdid keltirib chiqarayotgani sababli unga qarshi kurashish ham xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada olib borilyotganligini kuzatish mumkin. Masalan, xalqaro miqyosda BMTning Terrorizmga qarshi global strategiyasi (UN Global Counter-Terrorism Strategy, 2006) dunyo hamjamiyati uchun ushbu yo'nalishdagi mushtarak strategik hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. U quyidagilarni qamrab oladi: radikallashuvning ildiz sabablarini bartaraf etish (ta'lim, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy imkoniyatlar), xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy manbalarni to'sish, terror aktlaridan jabrlanganlarga yordam berish. Shuningdek, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan terrorchilik aktlarini sodir etish orqali jahon hamjamiyatiga xavf tug'dirayotgan jamoalarni xalqaro terrorchi tuzilmalar ro'yxatiga kiritilishi terrorizmga qarshi kurashning yana bir yo'nalishini namoyon qiladi. Qolaversa, transchegaraviy jinoyatlarni fosh qilish doirasida Interpol va Europol tarafidan terroristik guruhlarining a'zolari haqida ma'lumot almashish imkoniyati taqdim qilinishi davlatlarni xalqaro terrorizm xavfi ko'lamini baholashga yordam bermoqda.

Yevropa Ittifoqi, NATO, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasidagi mintaqaviy tashabbuslar ham, o'z navbatida, terrorizmga qarshi yaxdil xalqaro pozitsiyani shakllantirishda katta o'rin tutadi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari terrorizmga qarshi yagona strategiya ishlab chiqqan bo'lib, bu bo'yicha xavfsizlik xizmatlari o'rtasida tezkor ma'lumot almashish mexanizmlari mavjud. NATO alyansida esa terrorizmga qarshi harbiy va razvedka hamkorligi amalga oshiriladi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari ham ekstremizm, separatizm va terrorizmga qarshi “uch yovuz kuch” konsepsiyasi doirasida hamkorlik qiladi [1 : 259-276].

Markaziy Osiyo davlatlari terrorizm va ekstremizm xavfiga eng ko'p duch keladigan

hududlardan biri sifatida milliy darajada ham, mintaqaviy hamkorlik orqali ham o'z strategiyalarini olib boradi. Shu bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo davlatlari BMTning Terrorizmga qarshi global strategiyasiga qo'shilishi mintaqa respublikalarida mazkur yo'nalishda bir-biriga yaqin qarashlar shakllanishiga xizmat qildi. 2011 yilda qabul qilingan BMTning Markaziy Osiyoda Terrorizmga qarshi global strategiyasi (UN Global Counter-Terrorism Strategy (UNGCTS) in Central Asia) terrorizmning oldini olishga nisbatan mintaqaviy asos hisoblanadi.

Strategiya to'rt jihatga tayanadi va mintaqada terrorizmga qarshi kurash yuzasidan Qo'shma harakatlar rejasi va umumiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan [3 : 72–82]. Strategiya doirasidagi asosiy faoliyat qatoriga xalqaro va davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati va boshqa hamkorlarni jalb etgan holda tahdid va xavflarni baholash bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiruvchi Terrorizmga qarshi erta ogohlantirish tarmog'i (Counter-Terrorism Early Warning Network (CT EWN) kiradi. Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtirish markazi (Central Asia Regional Information and Coordination Centre (CARICC) va SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (Regional Anti-Terrorist Structure (RATS) bu sa'y-harakatlarning asosiy mintaqaviy hamkorlari hisoblanadi [4 : 386-405].

BMTning Markaziy Osiyoda Terrorizmga qarshi global strategiyasi “Qo'shma harakatlar rejasi”, “Ashxobod deklaratsiyasi” “Terrorizmga qarshi erta ogohlantirish tarmog'i” va “Dushanbe jarayoni va Quvayt bosqichi” (Dushanbe Process & Kuwait Phase) kabi tashabbuslar doirasida rivojlanib kelmoqda. Mazkur strategiyani amalga oshirish to'rt yo'nalishni qamrab oladi:

1) Terrorizmga qarshi erkin va plyural muhit yaratish: mojarolarning oldini olish hamda muloqot va bag'rikenglikni rivojlantirish yo'lida jamiyatning barcha qatlami uchun ta'lim va mehnat bandligini ta'minlashga qaratilgan;

2) Terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurash: huquqni muhofaza qilish va radikallashuvning oldini olish orqali milliy imkoniyatlarni mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

3) Davlatlararo va mintaqaviy hamkorlik salohiyatini oshirish: xalqaro va mintaqaviy organlar bilan hamkorlik qilish orqali davlatlarning

terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish imkoniyatlarini oshirish mo'ljallangan.

4) Inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlash: terrorizmga qarshi kurashda huquqqa asoslangan yondashuvni ilgari suradi, barcha sa'y-harakatlarda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni ta'minlaydi [2 : 171–189].

Terrorizmga qarshi global strategiyaning amaliy bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022 yil mart oyida BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha Mintaqaviy Kengash tuzildi. Kengash faoliyati doirasiga urush zonalaridan qaytgan shaxslarni (repatriates) jamiyatga qayta integratsiyalash, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ushbu jarayonda repatriantlar uchun holistik yondashuv, ya'ni, huquqiy, psixologik, ijtimoiy, ta'lim va ish bilan ta'minlash kabi yo'nalishlar ham nazarda tutilgan. Kengash mintqa davlatlari o'rtasida tajriba almashish, metodologiyalar, amaliyotlar va tajribalarni birlashtirib, qaytgan shaxslar (odatda ayollar va bolalar)ning huquqlarni ro'yobga chiqarish, ijtimoiy diskriminatsiyadan himoyalaniishi va jamiyatga moslashishi bo'yicha hukumatga taklif va tavsiyalar tayyorlaydi.

BMT Bosh Assambleyasining yubiley 80-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha Mintaqaviy Kengash haqida fikr bildirar turib "Biz uni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirishni taklif etamiz" degan bayonoti esa mazkur Kengash faoliyatini xalqaro miqyosda davom ettirishga chaqiriq hisoblanadi. Haqiqatan, Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari tomonidan o'tgan besh yil ichida mintqa bo'yicha 2000ga yaqin fuqaro nizoli hududlardan qaytarilishi, "Mehr" insonparvarlik amaliyoti doirasida yurtga qaytgan shaxslarga huquqiy yordam, ta'lim, ishga joylashish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi terrorizm va radikallashuvga qarshi Markaziy Osiyo tajribasini ko'rsatdi, desak yanglishmaymiz.

XULOSA

Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo'yicha Mintaqaviy Kengash maqomining Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirilishi

hozirda faqat mintqa davlatlarini qamrab olgan insonparvarlik amaliyotini jahon darajasiga chiqishini ta'minlaydi. Natijada, mazkur amaliyotda Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Afrika va Yevropa davlatlari ishtirokini ta'minlash orqali dunyodagi inson kapitali transformatsiyasini to'g'ri va adolatli taqsimlash va yo'naltirishga erishiladi. Shuningdek, Markaz faoliyati ko'pincha diskriminatsiyaga uchrab, fundamental huquqlaridan ayrilgan insonlar (ayniqsa ayollar va bolalar)ga yordam ko'rsatishning xalqaro huquq normalariga asoslangan reabilitatsiya va reintegratsiya standartlarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Bu esa davlatlar amaliyotida insonparvarlik yondashuvini mustahkamlaydi va inson huquqlarini himoya qilishning global modelini shakllantirishga zamin yaratadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abzhanov B., Shapashev M., Alnazirov R. (2024). Terrorism as a threat to national security: organizational and legal counteraction measures. *Güvenlik Bilimleri Dergisi*, 13(2), 259-276.
2. Lakbayev K., Nurgaliyev B., Khanov T., Bashirov A., & Smatlayev B. (2025). Countering Terrorist and Extremist Criminal Offences: A Situational Approach. *Jurnal Media Hukum*, 32(1), 171–189.
3. Mali G. M., Shah S., & Qadri N. A. (2025). Counter-Terrorism Strategies in Pakistan: Addressing the Menace of Terrorism. *Annals of Human and Social Sciences*, 6(1), 72–82.
4. [Sarah Lain](#). Strategies for countering terrorism and extremism in Central Asia // [Asian Affairs](#) Volume 47, 2016, -P. 386-405.
5. Shomirzayev Nodir T. Mutaassib shaxslarni sog'lom ijtimoiy muhitga qaytarishning jahon tajribasi // *The Light of Islam*, 4-son 2023 yil. – B. 92.